

Date: 13th May-2025

UMUMIY PSIXOLOGIYADA EKSPERIMENTAL METODLARNING RIVOJLANISHI

Maxsimova Ozoda Madaminjon qizi

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti
Amaliy psixologiya 1-kurs talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada umumiy psixologiyada eksperimental metodlarning rivojlanishi haqida olib borilgan tadqiqotlar va amaliyotlar haqida keltirib o'tilgan. Psixologiyaning rivojlanishi davomida, ko'plab maktablar va nazariyalar yuzaga keldi. Umumiy psixologiyada eksperimental metodlarning rivojlanishi. Umumiy psixologiyada eksperimentlarning keng qamrovda rivojlanib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir ilmiy tadqiqotlarni tajriba ya'ni eksperiment orqali aniqlay olamiz. Shuning uchun ham eksperimental psixologiya, eksperimental metodlar bularning barchasi samarali natija bera oladi, albatta.

Kalit so'zlar: Metod, psixologiya tarixi, eksperimental psixologiya, tajriba.

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования и практики, проводимые по развитию экспериментальных методов в общей психологии. В ходе развития психологии возникло множество школ и теорий. Развитие экспериментальных методов в общей психологии. Широкое развитие экспериментов в общей психологии имеет большое значение. Мы можем определить каждое научное исследование через опыт, то есть через экспериментирование. Поэтому экспериментальная психология, экспериментальные методы, все это может дать эффективные результаты, конечно.

Ключевые слова: Метод, история психологии, экспериментальная психология, эксперимент.

Abstract: This article discusses the research and practices conducted on the development of experimental methods in general psychology. During the development of psychology, many schools and theories have emerged. The development of experimental methods in general psychology. The wide development of experiments in general psychology is of great importance. We can determine each scientific research through experience, that is, through experimentation. Therefore, experimental psychology, experimental methods, all of these can give effective results, of course.

Keywords: Method, history of psychology, experimental psychology, experiment.

Psixologiyaning rivojlanishi davomida, ko'plab maktablar va nazariyalar yuzaga keldi. Shu jumladan umumiy psixologiya sohasida eksperimental metodlar ham keng qamrovda olib borildi. Boshqa fan sohalari, ayniqsa, tibbiy-biologik izlanishlarda inson va uning murakkab tuzilishi, ruhiy hayotiga qiziqish ortib borgan sari sekin- asta psixik jarayonlarning ham yaxlit bir tizimi bo'lishi va uni ham fanning yutuqlaridan foydalangan holda o'rganish mumkinligi g'oyasi paydo bo'ldi.



Date: 13th May-2025

Sekin-asta umumiy psixologiya hamda eksperimental psixologiya ya'ni eksperimental metodlar shakllana boshlagan. Psixologiy o'zi qanday fan ekanligi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsam: psixologiya so'zi yunoncha „pskhe“ (ruh, jon) va „logos“ (ilm) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, ruh yoki jon ilmi degan ma'noni anglatadi. U inson o'zi va atrofidagi insonlarni qanday tushunishni o'rganadi. Inson ruhiy va emotsional holatini tushunish va bu muammolarni hal qilishda keng yordam berish uchun qo'llaniladi.

Umumiy psixologiyada eksperimental metodlar haqida o'tishdan oldin eksperimental psixologiya va eksperimental metodlar haqida to'xtalib o'tsak: Eksperimental psixologiya- tadqiqot muammolari (turli psixologik yo'nalishlarda) va ularni hal qilish usullari bilan bog'liq bilimlarni tuzadigan psixologiya sohasi. Eksperimental psixologiya psixologik tadqiqot usullarining ilmiy intizomi deb ataladi. Eksperimental psixologiya XIX asrda psixologiyani fanga qo'yiladigan asosiy talablariga moslashtirish zarurati natijasida faol rivojlana boshlandi. Eksperimental psixologiya asoschisi sifatida Vilgelm Vundt va uning izdoshlari tan olinadi. 1879- yilda Vundt Germaniyaning Leyspig shahrida birinchi psixologik laboratoriyani tashkil etdi.

Umumiy psixologiyada eksperimental metodlarning rivojlanishi. Umumiy psixologiyada eksperimentlarning keng qamrovda rivojlanib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir ilmiy tadqiqotlarni tajriba ya'ni eksperiment orqali aniqlay olamiz. Shuning uchun ham eksperimental psixologiya, eksperimental metodlar bularning barchasi samarali natija bera oladi, albatta. Matnli bayon bu eksperimental metodlarning oddiy, tushunarli tarzda yozma shaklda ifodalash usullaridan biri hisoblanadi. Bu shakli ko'plab maqola, kurs ishlarida foydalaniladi.

Uning asosiy maqsadi metodlarning mantiqiy izchillikda, aniqlik va izohlar bilan tushunarli tarzda ifodalanishidir. Biror bir eksperimental metodning asosiy g'oyasi undan olingan natijalar bir- biri bilan solishtiriladi. Misol uchun bu jarayonga mos: "Reaksiya vaqtini o'lchash" eksperimentini qilmasak: Bir ishtirokchi qatnashiladi va u insonga bir tugma o'rnatiladi. U shaxs o'zi yorug'ni yoki tovush signalini sezgan payt tugmani bosishi kerak bo'ladi. Oxirida esa mana shu tajribani olingan xulosalarga to'xtalib o'tadigan bo'lsam: natijada shaxsning charchoq yoki vaqtning o'tishi reaksiya vaqtiga qanday ta'sir qilgani tahlil qilinadi va xulosalar olinadi. Bu eksperimental metodning rivojlanish jarayoni Vilgelm Vundt va uning izdoshlari XIX asr oxirida odamning sezgi va harakat orasidagi vaqt sarfini o'lchash inson ongini ilmiy tarzda o'rganishga urinishgan. Shundan so'ng reaksiya vaqti psixologik eksperimenti asosiy metodlaridan biriga aylangan. Eksperiment nazariyani tekshirib ko'rish uchun o'tkaziladi. Nazariya ichki bilishning nutqiy tizimiga izoh beradi. Nazariyaning mantiqiy qismlari bir-birini rad etadi. Nazariya asosida uning tushunarli obyektiv haqiqatlari yotadi. Mavjud ko'plab shakllar nazariy bilish: qonunlar, tasniflar va turlar, modellar, chizmalar, farazlardan iborat.

B.G. Ananevning fikriga ko'ra, psixologik kuzatish metodlari psixologik obyektlar bilan operatsiyalar tizimi bo'lib, fanning bilish obyektidir. Psixologiyada empirik metodlarni qo'llash muammosi ko'rib chiqilayotganda ularni psixologik metodlar tizimidagi o'mini aniqlashdan boshlash kerak. Empirik metodlarni qo'llashning beshta darajasini ajratish mumkin: 1. Metodika darajasi. 2. Metodik qo'llanma darajasi. 3. Metod



Date: 13th May-2025

darajasi. 4. Tekshirishni tashkil qilish darajasi. 5. Metodologik yondashish darajasi. T o 'g 'ri, «metod» atamasini turli darajada ishlatsa bo'ladi, masalan, psixofizikada-o'rtacha xatolar metodi, chegara metodi bor; psixodiagnostikada - proektiv metod (ikkinchi daraja); psixosemantikada semantik differensial metod va repertuar kataklar metodi haqida gapiriladi (birinchi daraja); yosh davrlari psixologiyasida psixogenetik metod to'g'risida bahs yuritiladi va uning turli xilligi - egizaklar metodida (to'rtinchi daraja) ko'rsatilgan. Psixologik tadqiqotda qo'llaniladigan usullarning darajali bo'lishini G. D. Pirov taklif etgan. U metodlarni quyidagi guruhlariga bo'lgan: 1) xususiy metod (kuzatuv, eksperiment, modellashtirish); 2) metodik qo'llanma; 3) metodik yondashuv. S. L. Rubinshteyn «Umumiy psixologiya asoslari»da eng asosiy psixologik metodlar sifatida kuzatuv va eksperimentni ajratib ko'rsatdi. Kuzatuv «tashqi» va «ichki»ga bo'lingan, eksperiment - laboratoriya ishi, tabiiy va psixologik-pedagogik, qo'shimcha metod uning asosiy modifikatsiyasida fiziologik eksperiment. Bundan tashqari, faoliyat mahsulini o'rganishda suhbat va anketa usullarini ajratib o'tdi. Tabiiyki, vaqt bu tasnifning qirralarini ta'kidladi. Shunday qilib, psixologiyaning falsafa bilan bog'liqligi uni nazariy metodlaridan mahrum qildi, xuddi shunday yaqinlik pedagogika va fiziologiya bilan bu fanlarning psixologik ro'yxatga qo'shilishi bilan amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.Nishonova, D. Qarshiyeva. Eksperimental psixologiya. T., «Fan va texnologiya», 2007,92 bet.
- 2.Drujinin V.N. Eksperimentalnaya psixologiya. 2-ye izd., pererab. i dop. SPb: Izd-vo «Piter», 2000. 320 s.
- 3.Psixologicheskiy praktikum «Mishleniye i rech»: uchebno-metodicheskoe posobie/ sost.. A.A. Malenov, A.10. Modenova. Omsk: Izd-vo OmGU 2005. 108 s. 4.Rogush L. A. Praktikum po nablyudeniyu i nablyudatelnosti. 2-ye izd pererabotannoe i dopolnennoe. SPb.: Piter, 2008. 208 s.
- 5.Eksperimentalnaya psixologiya: Praktikum: Uchebnoe posobie dlya vuzov/T. G. Bogdanova, Yu. B. Gippenreyter, Ye. L. Grigorenko i dr.; PoZ red. 5. D. Smimova, T. V. Komilovoy. M.: Aspekt Press, 2002. 383 s.